The Bank's request must include the reasons for deeming the information false, as well as information that allows for the identification of the falsely submitted information (notification number and date, submission method, transaction amount, currency in which the transaction was executed, and the date of the transaction).

3.3.7. The Department has the right to send the Bank written requests regarding submitted notifications, requesting additional information and copies of documents certified in the prescribed manner, in the following cases:

- when it is necessary to verify the

ishonchliligini tekshirish zaruriyati tug‘ilganda;

- bunday operatsiyaning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligi to‘g‘risida axborot mavjud bo‘lganda;
- O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq xalqaro shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishi doirasida.

Bank bunday so‘rovnomani olgandan so‘ng, Departament so‘rovi bo‘yicha boshqa muddat ko’rsatilmagan bo’lsa 3 ish kunida so‘ralgan ma’lumotlarni “Markaz” dasturi orqali elektron shaklda taqdim qiladi.

3.4 Xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha hamda talab qilingan ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan chet el valyutasidagi pul o‘tkazmalari aniqlangan hollarda ko‘riladigan choralar

3.4.1. Bankning tegishli bo‘linmalari barcha xalqaro pul o‘tkazmalari (to‘lovlari) oluvchisi va (yoki) jo‘natuvchisi haqidagi talab qilinadigan ma’lumotlar to‘liq va to‘g‘ri bo‘lishi uchun zaruriy choralarni ko‘rishlari lozim.

Xalqaro pul o‘tkazmalari (to‘lovlari) bo‘lib jismoniy yoki yuridik shaxs bo‘lgan mijoz (yoki Bank) kontragenti (jo‘natuvchi yoki oluvchi) yoki uning banki xorijiy mamlakatda joylashgan pul mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalar hisoblanadi.

3.4.2. Yuridik shaxs bo‘lgan Bank mijozidan xalqaro to‘lov bo‘yicha to‘lov hujjati qabul qilinganda tegishli bo‘linma xodimi ushbu hujjatda pul jo‘natuvchining nomi, manzili, to‘lov maqsadi, shuningdek, oluvchining nomi, mamlakati, manzili, banki (nomi, SVIFT kodi, mamlakati) mavjudligiga va to‘g‘ri aks ettirilganiga e’tibor berishi lozim.

3.4.3. Yuridik shaxs bo‘lgan mijozga xalqaro to‘lov bo‘yicha pul mablag‘lari

authenticity of received notifications**;**

- if there is information that such a transaction was conducted for the purpose of money laundering and terrorist financing;
- as part of the Republic of Uzbekistan's fulfillment of its obligations under international treaties related to combating money laundering and terrorist financing.

After receiving such a request, the Bank will provide the requested information electronically through the Markaz program within 3 business days, unless a different period is specified at the request of the Department.

3.4. Measures taken to ensure the completeness of information on international money transfers, as well as in the event of the identification of money transfers in foreign currency for which the required data is missing

3.4.1. The Bank's relevant departments must take the necessary measures to ensure the completeness and accuracy of the required information regarding the recipient and/or sender of all international transfers (payments).

International transfers (payments) are defined as transactions involving a customer (or the Bank) or a counterparty (sender or recipient), who is an individual or legal entity, or the funds of their bank located in a foreign country.

3.4.2. When accepting a payment document for an international payment from a Bank customer who is a legal entity, an employee of the relevant department must note the name and address of the sender, the purpose of the payment, as well as the name, country, address, and bank (name, SWIFT code, country) of the recipient.

3.4.3. When funds are received for international payments by a legal entity kelganda yuridik shaxslar bo'yicha valyuta nazoratini amalga oshirishga mas'ul bank xodimi pul mablag'larini kirim qilishga asos hujjatni (SVIFT xabarnomasini) sinchiklab tekshiradi hamda unda oluvchining nomi, jo'natuvchining nomi, mamlakati, manzili, banki (nomi, SVIFT kodi, mamlakati) hamda to'lov maqsadi mavjudligiga va to'g'ri aks ettirilganiga e'tibor beradi.

3.4.4. Talab qilingan ma'lumotlar to'liq va to'g'ri aks ettirilgan hamda qonunchilikda belgilangan boshqa talablarga mos bo'lgan pul mablag'lari mijoz hisobvarag'iga kirim qilinadi.

3.4.5. Talab qilingan ma'lumotlar to'liq yoki to'g'ri aks ettirilmaganda Valyuta nazoratini amalga oshirishga mas'ul bo'linma quyidagilarni amalga oshiradi:

- oluvchi yoki jo'natuvchi nomi ko'rsatilmaganda mablag'larni tranzit hisobvaraqqa kirim qilish va to'liq yoki to'g'ri ko'rsatilmagan ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha norezident bankka so'rov yuborish bo'yicha choralarni ko'radi hamda shu kunning o'zida o'rnatilgan tartibda Ichki nazorat xizmatiga xabar beradi;

- oluvchi va jo'natuvchi nomi to'liq ko'rsatilgan bo'lib, boshqa talab etiladigan ma'lumotlardan biri (jo'natuvchi nomi, mamlakati, manzili, to'lov mazmuni) ko'rsatilmaganda mablag'larni tranzit hisobvaraqqa kirim qilish va to'liq yoki to'g'ri ko'rsatilmagan ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha norezident bankka so'rov yuborish bo'yicha choralarni ko'radi.

3.4.6. Jismoniy shaxslarning xalqaro pul o'tkazmalarni tashkil etish va nazorat qilish maqsadida Chakana biznes boshqarmasi bunday xizmatlarni ko'rsatuvchi bo'linmalar (bo'limlar, minibanklar) va ushbu bo'linmalar xodimlari hisobini yuritishi lozim.

Pul o'tkazmalariga oid operatsiyalar amalga oshirilishidan oldin bunday xizmatlarni ko'rsatuvchi bo'linmalar xodimlari jismoniy shaxs mijozlarni lozim darajada tekshirishi shart.

customer, the bank employee responsible for currency control for legal entities shall carefully review the document that serves as the basis for crediting the funds (SWIFT message) and ensures that it accurately reflects the recipient's name, name, country, sender's address, bank (name, SWIFT code, country), and the purpose of payment.

3.4.4. Funds that fully and accurately reflect the required information and meet other legal requirements shall be credited to the customer's account.

3.4.5. If the required information is incomplete or inaccurate, the unit responsible for currency control shall:

- If the name of the recipient or sender is not indicated, it shall take steps to request the non-resident bank to credit the funds to the transit account and identify any incomplete or incorrect information, and shall notify the Internal Control Service on the same day in accordance with the established procedure;

- If the name of the recipient and sender is fully indicated, but one of the other required pieces of information (name, address, country of sender, payment subject) is missing, it shall take steps to request the non-resident bank to credit the funds to the transit account and identify any incomplete or incorrect information.

3.4.6. In order to organize and control international money transfers of individuals, the Retail Business Department shall maintain records of the units (departments, mini-banks) providing such services, and the employees of these units.

Before executing money transfer transactions, employees of the divisions providing such services shall properly verify individual customers.

3.4.7. Xalqaro pul o‘tkazmalarni amalga oshiruvchi bo‘linmalar mas’ul xodimlari jo‘natiladigan pul o‘tkazmalarini mijoz-jo‘natuvchi haqidagi (familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa); shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-karta yoxud ularning o‘rnini bosadigan hujjat) seriyasi va raqami; agar operatsiya jarayonida hisobvaraq ishlatilgan bo‘lsa, u holda uning raqami yoki operatsiyaning xos raqami; jo‘natuvchining manzili yoki davlat identifikatsiya raqami yoki mijozning identifikatsiya raqami yoki jismoniy shaxslar uchun tug‘ilgan sanasi va joyi) va oluvchi haqidagi (familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa); agar operatsiya jarayonida hisobvaraq ishlatilgan bo‘lsa, u holda uning raqami yoki operatsiyaning xos raqami) aniq ma’lumotlar bilan birga yuborilishini ta’minlashlari lozim.

3.4.7. Responsible employees of the divisions executing international money transfers must ensure that the transfer is accompanied by accurate information about the sender (last name, first name, patronymic (if any); series and number of the identity document (passport or equivalent); if an account was used in the transaction, its number or unique transaction code; the sender's address or state identification number or customer identification number; or, for individuals, date and place of birth) and the recipient (last name, first name, patronymic (if any); account number, if the customer's account was used in the transaction, or a unique transaction code).

3.4.8. Xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari orqali yoki norezident banklardagi jo‘natuvchidan jismoniy shaxs mijozlarga kelgan pul o‘tkazmalari bo‘yicha talab qilingan ma’lumotlar to‘liq bo‘lmaganda quyidagi choralar ko‘riladi:

- asosiy ma’lumotlardan hech bo‘lmaganda biri, ya’ni jo‘natuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa) yoki mamlakati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, pul o‘tkazmasi mijozga to‘lab berilmaydi hamda mazkur operatsiya haqida shu kunning o‘zida o‘rnatilgan tartibda o‘zining bevosita rahbari va Ichki nazorat xizmatiga xabar beriladi. Norezident banklardagi jo‘natuvchidan kelgan to‘lovlar bo‘yicha bu haqida Chakana biznes boshqarmasiga murojaat qilinadi. O‘z navbatida Chakana biznes boshqarmasi ko‘rsatilmagan ma’lumotni aniqlash bo‘yicha choralar ko‘radi (xalqaro pul o‘tkazmasi tizimiga yoki norezident bankka tegishli so‘rov yuboradi);
- jo‘natuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa) va mamlakati ko‘rsatilgan bo‘lib, boshqa ma’lumotlardan biri ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bu haqida Chakana biznes boshqrmasiga murojaat qilinadi. O‘z

3.4.8. Responsible employees of departments handling international money transfers to incoming individual customers must, when verifying the completeness of information on such transfers, do the following:

- If at least one of the key details is missing, i.e., the sender's last name, first name, patronymic (if any), or country of origin, the money transfer shall be not paid to the customer and the transaction shall be reported to their immediate supervisor and the Internal Control Service on the same day. For payments received from the sender at non-resident banks, a notification shall be submitted to the Department of Monetary Circulation and Retail Operations. The Department of Monetary Circulation and Retail Operations, in turn, shall take measures to identify any missing information (by sending appropriate inquiries to the international money transfer system or the non-resident bank);
- If the sender's last name, first name, patronymic (if any), and country are provided, but one of the other details is missing, a notification shall be submitted to the Department of Monetary Circulation and Retail

navbatida Chakana biznes boshqrmasi koʻrsatilmagan maʼlumotni aniqlash boʻyicha choralar koʻradi (xalqaro pul oʻtkazmasi tizimiga yoki norezident bankka tegishli soʻrov yuboradi).

Operations. In turn, the Department of Monetary Circulation and Retail Operations shall take measures to identify unspecified information (by sending relevant requests to the international money transfer system or non-resident bank).

3.4.9. Mijozlar operatsiyalari ustidan samarali nazoratni amalga oshirish hamda ular boʻyicha tezkor tarzda maʼlumot olish maqsadida Tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmasi va Chakana biznes boshqarmasi tomonidan barcha xalqaro pul oʻtkazmalari hisobi yuritilishi lozim.

3.4.9. In order to effectively monitor customer transactions and promptly receive information on them, the Department of Foreign Economic Activity and the Retail Business Department must maintain records of all international money transfers.

3.4.10. Bankning avtomatlashtirilgan tizimida yuridik va jismoniy shaxs mijozlarning barcha xalqaro pul oʻtkazmalari (toʻlovlari) boʻyicha maʼlumotlar bazasi shakllantiriladi va undan mijoz operatsiyalarini tahlil qilish, nazorat qilish va hisobot uchun foydalaniladi.

3.4.10. The bank's automated system shall maintain a database of all international money transfers (payments) of legal entities and individuals, which shall be used to analyze, monitor, and report customer transactions.

3.5. Ichki nazorat xizmati xodimlari tomonidan Ichki nazorat xizmati rahbariga qonun buzilish dalillari toʻgʻrisida axborot taqdim etish

3.5. Submission of information on violations of the law by Internal Control Service employees to the Manager of the Internal Control Service.

3.5.1. Ichki nazorat xizmati rahbari oʻz vakolatlari doirasida Bankda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat tizimini toʻgʻri tashkil etish va faoliyat koʻrsatishi uchun zaruriy choralarni koʻrishi lozim.

3.5.1. The Manager of the Internal Control Service, within the limits of their authority, must take the necessary measures to ensure the proper organization and functioning of the Bank's internal control system to combat money laundering, terrorist financing, and the financing of the proliferation of weapons of mass destruction.

Ichki nazorat xizmati rahbari Amaliyot boshqarmasi/MBXOlarda ichki nazorat tizimi toʻgʻri tashkil etilishini nazorat qilish uchun ularga biriktirilgan ichki nazorat xodimlari bilan doimiy ravishda munosabatda boʻlishi lozim.

The Manager of the Internal Control Service must constantly interact with assigned internal control officers to ensure the proper organization of the internal control system in the Operations Department/ Regional Office of Banking Services (ROBS).

3.5.2. Bank Amaliyot boshqarmasi/ MBXOlariga biriktirilgan ichki nazorat xodimlari ichki nazorat tizimi qay darajada faoliyat koʻrsatayotganini baholab borib, uni takomillashtirish yoki yoʻl qoʻyilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan, shuningdek, Ichki nazorat xizmati rahbariga zarur maʼlumotlar berish boʻyicha choralarni koʻrishlari lozim.

3.5.2. Internal control officers assigned to the Bank's Operations Department/ Regional Office of Banking Services (ROBS) must assess the effectiveness of the internal control system and take measures to improve it or eliminate deficiencies, as well as provide the necessary information to the Head of the Internal Control Service.

Ichki nazorat xodimlari oʻz vazifalarini

In the performance of their duties, internal bajarish jarayonida quyidagilarga alohida e’tibor qaratishlari shart:

- tegishli mas’ul xodimlar tomonidan mijozlarning lozim darajada tekshirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, shu jumladan, ularning identifikatsiyasi ma’lumotlarining mijoz elektron anketalariga o‘z vaqtida va to‘liq kiritilishi;
- mas’ul xodimlar tomonidan mijozlarni lozim darajada tekshirish jarayonida yuqori mansabdor shaxslarni aniqlash bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilishi;
- mas’ul xodimlar tomonidan gumonli operatsiyalarning o‘z vaqtida aniqlanishi va ichki nazorat xodimlariga xabar berilishi;
- shubhali operatsiyalar haqida xabarlarning Bosh bankka o‘z vaqtida berish;
- rahbariyatni Bankda ichki nazorat bo‘yicha vaziyatdan xabardor qilib turish, shu jumladan gumonli va shubhali operatsiyalar to‘g‘risidagi hisobotlarni berish va ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;
- Bankda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmga qarshi kurashishga oid ichki nazorat bo‘yicha hujjatlarni to‘g‘ri yuritish.

3.5.3. Ichki nazorat tizimiga oid vazifalarni bajarishga mas’ul Amaliyot boshqarmasi/MBXO xodimlari tomonidan mazkur vazifalarini (mijozlarni identifikatsiya qilish, elektron anketalarni to‘ldirish, identifikatsion ma’lumotlarni yangilab borish, gumonli va shubhali operatsiyalarni aniqlash va ular to‘g‘risida xabar berish, xalqaro to‘lovlar bo‘yicha elektron jadvallarni yuritish kabi) bajarishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganda Ichki nazorat xizmati xodimi bu haqda Amaliyot boshqarmasi/MBXO rahbariga va Ichki nazorat xizmati rahbariga sababchi xodimlarga nisbatan tegishli choralar ko‘rilishini so‘rab murojaat qiladi.

control officers shall pay particular attention to:

- Proper implementation of customer due diligence by responsible employees, in particular the timely and complete entry of customer identification information into electronic customer forms;
- Responsible employees take appropriate measures during customer due diligence to identify politically exposed persons;
- Timely identification of suspicious transactions by responsible employees and reporting to internal control officers;
- Timely submission of information on suspicious transactions to the Head Office;
- Reporting to management on the status of internal controls within the bank, including making proposals for reporting dubious and suspicious transactions and improving the internal control system;
- Proper maintenance of internal control documents within the Bank related to combating money laundering and the financing of terrorism.

3.5.3. If employees of the Operations Department/ Regional Office of Banking Services (ROBS) responsible for tasks related to the internal control system commit deficiencies in the performance of these tasks (such as customer identification, completing electronic forms, updating identification data, identifying and reporting suspicious and dubious transactions, or maintaining spreadsheets for international payments), the Internal Control Service employee will contact the Manager of the Operations Department/ Regional Office of Banking Services (ROBS) and the Manager of the Internal Control Service with a request to take appropriate measures against the guilty employees.

Mazkur ichki qoidalarda belgilangan talablar MBXO xodimlari tomonidan bajarilmaganda, qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilganda va kamchiliklar takrorlanganda Ichki nazorat xizmati rahbari tegishli xodimlarga nisbatan chora ko‘rilishini so‘rab Boshqaruv Raisiga yozma murojaat qiladi.

If employees of the Operations Department/ Regional Office of Banking Services (ROBS) fail to comply with the requirements established by these internal Regulations, commit serious errors, or repeatedly commit deficiencies, the Manager of the Internal Control Service will submit a written request to the Chairman of the Management Board to take appropriate measures against the relevant employees.

3.5.4. Ichki nazorat xodimlari o‘z vazifalarini amalga oshirishi uchun kerakli texnik va dasturiy vositalar bilan ta’minlanadi.

3.5.4. Internal Control Service employees are provided with the necessary hardware and software to perform their duties.

IV. TAVAKKALCHILIK DARAJASINI ANIQLASH, BAHOLASH, BOSHQARISH VA HUJJATLASHTIRISH TARTIBI

IV. PROCEDURE FOR DETERMINING, ASSESSING, MANAGING, AND DOCUMENTING RISK LEVEL

4.1. Mijozlarning tavakkalchilik darajasini aniqlash, yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiradigan mijozlarning hisobini yuritish va monitoring qilish

4.1. Determining the risk level of customers, maintaining records, and monitoring high-risk customers

4.1.1. Ichki nazorat xizmati tavakkalchilik darajasini aniqlash, baholash, monitoring qilish, boshqarish, hujjatlashtirish va uni kamaytirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rishi kerak.

4.1.1. The Internal Control Service must take appropriate measures to identify, assess, monitor, manage, document, and mitigate risk.

Ichki nazorat xizmati jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish yuzasidan ehtimol tutilgan tavakkalchiliklarni o‘rganishni, tahlil qilishni va aniqlashni o‘z faoliyatida tizimli ravishda, yiliga kamida bir marta amalga oshirishi, o‘rganish natijalarini hujjatlar bilan qayd etishi shart.

The Internal Control Service must systematically, at least annually, study, analyze, and identify potential risks of money laundering, terrorist financing, and the financing of the proliferation of weapons of mass destruction, documenting the results of the study.

Ichki nazorat xizmati tavakkalchiliklar turi va darajasidan kelib chiqqan holda tavakkalchilikning umumiy darajasini, uning talab qilingan pasaytirish darajasini aniqlashi va tegishli chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishi kerak.

Based on the type and level of risk, the Internal Control Service must determine the overall risk level, the required level of mitigation, and implement an appropriate program of measures.

Aniqlangan tavakkalchiliklar nazorat qilishning kengaytirilgan yoki soddalashtirilgan choralarini qo‘llash hamda resurslarni samarali taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilish imkonini berishi kerak.

The measures applied must enable decisions to be made on the implementation of expanded or simplified control measures for identified risks and the effective allocation of resources.

Tavakkalchilik darajasi mijozning amalga oshiradigan faoliyat va operatsiyalari turlarini, mazkur Qoidalarda belgilangan mezonlar, mijozni lozim darajada tekshirish

The risk level shall be identified and assessed by the responsible employee based on the information provided by the customer, taking into account the types of activities and natijalarini, tavakkalchilik (mijozlarning turlari va faoliyati, bank mahsulotlari va xizmatlari, ularni taqdim etish kanallari, geografik hududlar bo‘yicha va boshqa) omillarini inobatga olgan holda ma’lumotlarni, shu jumladan, mijoz tomonidan taqdim qilingan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida, ichki nazorat xodimi tomonidan aniqlanadi va baholanadi.

Tavakkalchiliklarni baholash natijalari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etilishi kerak.

4.1.2. Ichki nazorat xizmati xodimi mijozlarga bevosita xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalar (mijozlarga korporativ xizmat ko‘rsatish bo‘limi, chakana amaliyotlar va plastik kartalar bo‘limi va boshqalar) xodimlari tomonidan mijozni lozim darajada tekshirish natijasida olingan ma’lumotlarga asosan mazkur qoidalarda belgilangan mezonlarga ko‘ra mijozlarga tavakkalchilik darajasini belgilaydi.

4.1.3. Mijozlarni yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga o‘z vaqtida va to‘g‘ri kiritish maqsadida ichki nazorat xizmati xodimlari mijoz lozim darajada tekshirilgan (hisobvaraq ochilgan, bir martalik operatsiya amalga oshirilgan) kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan ularning elektron anketalarida aks ettirilgan ma’lumotlarga asoslanib ularni yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kirishi yoki kirmasligini elektron anketasida belgilaydi.

4.1.4. Mijozning elektron anketasi shakllantirilmagan hollarda Ichki nazorat xizmati xodimi elektron anketani to‘ldirish uchun mas’ul bo‘lgan bo‘linma boshlig‘iga bu haqda ma’lum qiladi va elektron anketaning o‘z vaqtida to‘ldirilishi talab qiladi.

Mijozning elektron anketasi shakllantirilgandan so‘ng agar mijoz mazkur qoidalarda belgilangan mezonlarga ko‘ra yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kirsa, uning elektron anketasida tegishli belgini qayd etadi.

4.1.5. Ichki nazorat xizmati xodimlari yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiradigan mijozlarning elektron ro‘yxatlarini yuritishi shart. Yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiradigan mijozlarning elektron

transactions performed by the customer, the criteria established by these Regulations, the results of customer due diligence, and risk factors (by customer types and activities, banking funds and services, supply channels, geographic regions, and others), including through the review and analysis of the information provided by the customer.

The risk assessment results must be submitted to the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.

4.1.2. The internal control officer, based on information obtained as a result of customer due diligence by employees of departments directly serving customers (the corporate customer services department, the retail operations and plastic cards department, etc.), shall determine the risk level for customers based on the criteria established by these Regulations.

4.1.3. To ensure timely and accurate classification of customers as high-risk, Internal Control Service employees, no later than the business day following the day of due diligence (account opening, one-time transaction), determine whether they fall into the high-risk category in the electronic questionnaire based on the information contained in their electronic questionnaires.

4.1.4. If the electronic customer questionnaire is not generated, the Internal Control Service employee shall inform the head of the department responsible for completing the electronic questionnaire and requests its timely completion.

After the electronic customer questionnaire is generated, if the customer falls into the high-risk category according to the criteria established by these Regulations, the employee shall mark the customer accordingly in the electronic questionnaire.

4.1.5. Internal Control Service employees shall maintain electronic lists of customers classified as high-risk. In addition to customer information, the electronic list of customers classified as high-risk must reflect the criteria ro‘yxatida mijoz haqidagi ma’lumotlardan tashqari uning qaysi mezonga ko‘ra yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kirishi, faoliyat yuritishni boshlagan sana (yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘yicha), yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiritilgan sana va boshqa zarur ma’lumotlar aks ettirilishi lozim. Avtomatlashtirilgan bank tizimi yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiradigan mijozlar to‘g‘risidagi ma’lumotni olish imkonini berishi kerak.

by which they are classified as high-risk, the commencement date of operations (for legal entities and sole proprietors), the date of assignment to the high-risk category, and other necessary information. The automated banking system must be able to obtain information about customers classified as high-risk.

4.1.6. Mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning tavsifi o‘zgarishiga qarab, Ichki nazorat xizmati zarur hollarda u bilan ishlash bo‘yicha tavakkalchilik darajasini qayta ko‘rib borishi lozim.

4.1.6. Depending on changes in the nature of the customer's transactions, the Internal Control Service must, if necessary, revise the risk level for working with them.

Ichki nazorat xizmati xodimi mijozni yuqori tavakkalchilik darajasi toifasidan chiqarganda uning elektron anketasida va yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiradigan mijozlarning elektron ro‘yxatida tegishli o‘zgartirish kiritadi.

When a customer is removed from the high-risk category, an Internal Control Service employee shall make the appropriate changes to their electronic questionnaire and the electronic list of customers classified as high-risk.

4.2. Yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiradigan mijozlar va operatsiyalar mezonlari, hamda yuqori xatarga ega bo’lgan faoliyat turlari

4.2. Criteria for High-Risk Customers and Transactions, as well as High-Risk Activities

4.2.1. Ichki nazorat xizmati avvaldan quyidagi mezonlarga javob beradigan mijozlarni yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritib, ularga nisbatan kuchaytirilgan e’tibor qaratishi lozim:

4.2.1. The Internal Control Service shall classify customers who initially meet the following criteria as high-risk, with respect to whom it must exercise increased vigilance:

a) Ro‘yxatga kiritilgan shaxslar yoxud Ro‘yxatga kiritilgan shaxsning egaligi yoki nazoratidagi tashkilotlar, Ro‘yxatga kiritilgan tashkilotning bevosita yoxud bilvosita mulkdori yoki nazorat qiluvchi shaxslar;

a) persons included in the List or organizations owned or controlled by a person included in the List, or persons who directly or indirectly own or control an organization included in the List;

b) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatda doimiy yashayotgan, turgan yoki ro‘yxatga olingan shaxslar;

b) persons permanently residing, located, or registered in a state that does not participate in international cooperation in the field of combating money laundering and the financing of terrorism;

v) chet el korxonalarining vakolatxonalari va O‘zbekiston Respublikasining norezident – jismoniy shaxslar;

c) representative offices of foreign companies and non-resident individuals of the Republic of Uzbekistan;

g) offshor hududda doimiy yashayotgan, turgan yoki ro‘yxatga olingan shaxslar;

d) persons permanently residing, located, or registered in an offshore zone;

d) offshor hududlarda hisobvaraqqa ega bo‘lgan rezident va norezidentlar;

e) haqiqatda joylashgan joyi ta’sis yoki ro‘yxatga olish hujjatlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiq bo‘lmagan tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

z) benefitsiar mulkdori mazkur bandning “a” va “b” kichik bandlarida ko‘rsatilgan shaxslar hisoblangan tashkilotlar;

i) 3 oy ichida ketma-ket shubhali yoki gumonli operatsiyalarni amalga oshiruvchi mijozlar;

k) mijozni lozim darajada tekshirish imkoniyati mavjud bo‘lmagan dasturiy majmualardan foydalanuvchi mijozlar;

l) yuqori mansabdor shaxslar, ularning yaqin qarindoshlari va yuqori mansabdor shaxslarga yaqin shaxslar,

l^1) yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasi;

l^2) akkauntlariga 20 ta va undan ortiq bank kartalari biriktirilgan shaxslar;

l^3) bir vaqtning o‘zida rahbari va ta’sischilari/benefitsiar mulkdorlari o‘zgargan yuridik shaxslar (agar bunday ma’lumotlar tijorat bankiga ma’lum bo‘lsa).

Yuqoridagilardan tashqari, Bankning risk yondashuvi asosida boshqa mijozlarga ham yuqori risk darajasi berilishi mumkin. Bunday mijozlar toifalari Bankning “O’z mijozingizni biling (KYC) Tartibi” bilan belgilanadi.

4.2.2. Bank quyidagi mezonlarga javob beradigan operatsiyalarni yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritishi va ularga nisbatan kuchaytirilgan e’tibor qaratilishi lozim:

a) ishtirokchilari mazkur Qoidalarning 4.2.1–bandining “a”, “b”, “z”, “l” kichik bandlarida ko‘rsatilgan shaxslar hisoblangan operatsiyalar;

b) offshor hududda ochilgan hisobvaraqlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar;

v) qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar, shuningdek tarkibida qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar mavjud bo‘lgan zargarlik buyumlari bilan operatsiyalar, bank o‘zi amalga oshiradigan bunday operatsiyalardan tashqari;

g) jo‘natuvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlari (jismoniy shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yuridik shaxslarning nomi, jo‘natuvchining joylashgan yeri (pochta

d) residents and non-residents with accounts in offshore zones;

e) organizations and sole proprietors whose actual location does not correspond to the information specified in their constituent or registration documents;

f) organizations whose beneficial owner is the person specified in subparagraphs "a" and "b" of this paragraph;

g) customers who have carried out suspicious or doubtful transactions for three consecutive months;

h) customers who use software systems that preclude the possibility of conducting customer due diligence;

i) public officials, their family members, and persons close to public officials;

i^1) a foreign structure without a legal entity;

i^2) persons with 20 or more bank cards linked to their accounts;

i^3) legal entities whose director and founders/beneficiary owners have changed simultaneously (if such information is known to the commercial bank).

In addition to the above, other customers may also be assigned a high risk level based on the Bank's risk approach. Such customer categories are defined by the Bank's Know Your Customer (KYC) Procedure.

4.2.2. The Bank shall classify as high-risk the following transactions that meet the following criteria and for which it shall exercise increased vigilance:

a) transactions involving persons specified in subparagraphs "a," "b," "f," and "i" of clause 4.2.1 of these Regulations;

b) transactions carried out through accounts opened in offshore zones;

c) transactions involving precious metals, precious stones, and jewelry containing precious metals and precious stones, with the exception of such transactions carried out by the bank itself;

d) transactions involving money transfers in which the sender's information (last name, first name, and patronymic of individuals, full name of legal entities, location (mailing manzili) va hisob raqami) to‘liq hajmda taqdim etilmagan pul mablag‘larini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar;

address), and account number of the sender) is not provided in full;

d) tranzaksiyalar monitoring jarayonida Ichki nazorat xizmati xodimi tomonidan tavakkalchilik darajasi yuqori baholangan operatsiyalar.

e) transactions for which an Internal Control Service employee has assessed the risk level as high during transaction monitoring.;

4.2.3. Bank jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg’in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish doirasida ayrim faoliyat turlari va mijozlar bilan amaliy ish munosabatlariga kirishishni taqiqlaydi hamda tekshiruv jarayonida aniqlangan bunday faoliyat turlari va mijozlar bilan amaliy ish munosabatlarini to‘xtatadi.

4.2.3. The Bank prohibits business relationships with certain activities and customers within the framework of combating money laundering, terrorist financing, and the financing of the proliferation of weapons of mass destruction, and suspends business relationships with such activities and customers identified during due diligence.

Taqiqlangan faoliyat turlari va mijozlar toifalari “O’z mijozingizni biling (KYC) Tartibi” asosida belgilanadi.

Prohibited activities and customer categories shall be determined in accordance with the Know Your Customer (KYC) Procedure.

4.3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va (yoki) terrorizmni moliyalashtirish maqsadida texnologik yutuqlardan foydalanilishini oldini olishga qaratilgan choralar

4.3. Measures aimed at preventing the use of technological advances for the purpose of money laundering and/or terrorist financing.

4.3.1. Bank jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va (yoki) terrorizmni moliyalashtirish maqsadida texnologik yutuqlardan foydalanilishini oldini olishga qaratilgan choralarni ko‘rishi kerak. Ushbu maqsadda Bankning tegishli bo‘linmalari:

- yangi xizmat turlari va yangi ish amaliyoti ishlab chiqilishi;
- yangi va mavjud xizmat turlari uchun yangi yoki rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanilishi sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilik darajalarini aniqlashi va baholashi kerak.

4.3.1. The Bank shall take measures aimed at preventing the use of technological advances for the purposes of money laundering and/or terrorist financing. To this end, the relevant Bank units are required to identify and assess the levels of risk that may arise in connection with:

- the development of new services and new business practices;
- identify and assess the levels of risk that may arise from the use of new or emerging technologies for new and existing types of services.

4.3.2. Tavakkalchilikni bunday baholash yangi xizmat turlarini, ish amaliyotini tadbiq qilishdan yoki yangi yoxud rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanishdan avval o‘tkazilishi kerak. Bunda, bunday tavakkalchilikni aniqlash va Bankning yangi xizmat turlarini (yangi texnologiyani) bevosita joriy qilayotgan bo‘linmasi tomonidan Ichki nazorat xizmati bilan birgalikda amalga oshiriladi.

4.3.2. Such risk assessment should be conducted prior to the introduction of new services, business practices, or the use of new or developing technologies. In this case, the identification of such risks and their implementation is carried out by the Bank's unit directly implementing the new services (new technology) in conjunction with the Internal Control Service.

Bankning mazkur bo‘linmasi va Ichki

This Bank unit and the Internal Control

nazorat xizmati ushbu tavakkalchiliklarni monitoring qilish va kamaytirish uchun tegishli choralarni ko‘rishlari lozim.

4.3.3. Tegishli boshqarma(lar) o‘zi taklif etayotgan texnologik yutuqlardan foydalangan holda yangi xizmat turi yoki ish amaliyotini joriy qilish yoxud mavjudlarini rivojlantirish natijasida yaratiladigan qulaylik va samaradorliklarni tahlil qilishdan tashqari yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilik darajasini aniqlashi va baholashi lozim.

Tegishli boshqarma(lar) tavakkalchilik darajasini baholab yangi xizmat turi yoki ish amaliyotini joriy qilish borasidagi taklifini, shu jumladan texnik jihatlarini batafsil yoritgan holdagi yozma ma’lumotni Ichki nazorat xizmatiga ko‘rib chiqish va tavakkalchilik darajasiga baho berish, mazkur tavakkalchilikni kamaytirish bo‘yicha taklif berishi uchun taqdim etadi.

4.3.4. Ichki nazorat xizmati yangi xizmat turi yoki ish amaliyotini joriy qilish bilan bog‘liq taklifning barcha jihatlarini batafsil o‘rganishi lozim. Zaruriyat tug‘ilganda Ichki nazorat xizmati Bankning boshqa bo‘linmalaridan (Axborot texnologiyalari boshqarmasi, Axborot xavfsizligi boshqarmasi, Yuridik boshqarma va boshqalar) yordam so‘rashga haqli.

Ichki nazorat xizmati tavakkalchiliklarni o‘rganib va baholab, o‘zining yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilik darajalarini hamda ushbu tavakkalchiliklarni monitoring qilish va kamaytirish uchun tegishli choralar ko‘rsatilgan yozma xulosasini Bank Boshqaruviga taqdim etadi.

4.3.5. Texnologik yutuqlardan foydalangan holda yangi xizmat turlari va yangi ish amaliyotini joriy qilish Bank Boshqaruvi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

4.3.6. Masofaviy xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida tegishli Bank bo‘linmalari tavakkalchilikni kamaytirish maqsadida:

- masofaviy xizmatlarni ko‘rsatish to‘g‘risida mijozlar bilan imzolanadigan shartnomalarda mijoz tomonidan ushbu xizmatlardan foydalangan holda amalga oshirilgan

Service shall take appropriate measures to monitor and mitigate these risks.

4.3.3. The relevant department shall identify and assess the level of risk that may arise, in addition to analyzing the convenience and efficiency created by the introduction of a new service or business practice or the development of existing ones using the technological advances offered by it.

The relevant department shall submit a proposal to introduce a new service or business practice, along with a risk assessment, including written information detailing the technical parameters, to the Internal Control Service for review and risk assessment, as well as for making proposals to mitigate the risk.

4.3.4. The Internal Control Service must thoroughly review all aspects of the proposal related to the introduction of a new service or business practice. If necessary, the Internal Control Service may seek assistance from other Bank departments (the Information Technology Department, the Information Security Department, the Legal Department, etc.).

After reviewing and assessing the risks, the Internal Control Service shall provide the Bank's Management Board with a written opinion indicating the potential risk levels, as well as appropriate measures to monitor and mitigate these risks.

4.3.5. The introduction of new services and new business practices using technological advances shall be carried out based on a decision of the Bank's Management Board.

4.3.6. To mitigate risks in the provision of remote services, the relevant Bank divisions shall:

- Remote service agreements concluded with customers must include measures to be taken in the event of detection of suspicious transactions conducted by the customer using these services shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda ko‘riladigan choralar (bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar ushbu xizmatlarni ko‘rsatishni to‘xtatib turish; ushbu xizmatlarni ko‘rsatishni rad etish)ni ko‘zda tutishlari kerak;

- masofaviy xizmatlardan foydalanilgan holda shubhali operatsiyalar amalga oshirilganda, bunday xizmatlarni ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomada ko‘rsatilgan muddatga masofaviy xizmatlarni ko‘rsatishni to‘xtatishlari kerak;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida masofaviy xizmatlardan foydalanilganligi haqida asoslantirilgan shubhalar mavjud bo‘lganida bunday xizmatlarni ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarni o‘rnatilgan tartibda bekor qilishlari kerak.

4.3.7. Bank bo‘linmalari tomonidan sifatli va zamonaviy xizmat ko‘rsatish, xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish hamda ichki nazorat tizimining faoliyatini yaxshilash maqsadida tegishli bo‘linmalar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish va joriy qilish, ish jarayonlarini yengillashtirish, mavjud dasturiy ta’minotlarni takomillashtirish, asosli va foydali boshqaruv hisobot turlarini kiritish bo‘yicha choralar ko‘rilishi lozim.

4.3.8. Mijozlarni lozim darajada tekshirish natijasida olingan ma’lumotlar bazasi zarur hisobotlarni tezkor va qulay tarzda olish imkonini berishi lozim, jumladan u quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- mijoz anketalarini qog‘oz shaklida chop etish;
- barcha toifadagi mijozlar orasida bir necha ko‘rsatkichlar bo‘yicha (nomi, mamlakati, faoliyat turi, manzili va boshq.) qidirish va guruhlash;
- mavjud mezonlar asosida mijozlarga ma’lum tavakkalchilik darajasini berishni maksimal ravishda avtomatik tarzda nazorat qilish;

(suspension of these services until the customer provides a written explanation of the legality of the transactions; refusal to provide these services);

- Must suspend the provision of remote services used to conduct suspicious transactions for the period specified in the agreement for the provision of these services;
- Must terminate the agreement for the provision of remote services in the established manner if there is reasonable grounds to suspect that such services are being used for money laundering or terrorist financing.

4.3.7. To ensure that Bank divisions provide high-quality and modern services, improve employee productivity, and enhance the internal control system, the relevant divisions must take measures to study and implement modern technologies, optimize work processes, improve existing software, and implement sound and useful management reporting.

4.3.8. The database obtained as a result of customer due diligence must enable the prompt and convenient generation of necessary reports, including meeting the following requirements:

- Printing of customer questionnaires in paper form;
- Search and grouping by several indicators (name, country, type of activity, address, etc.) across all customer categories;
- Automatic control at the maximum level of assigning a certain risk level to customers based on existing criteria;

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatlar hamda offshor hududlarda ro‘yxatdan o‘tgan yoki yashayotgan mijozlar va ularning benifitsiar mulkdorlari bo‘yicha ma’lumotlarni olish va boshqalar.

4.3.9. Bankda foydalanilayotgan axborot texnologiyalarini, jumladan avtomatlashtirilgan bank tizimi va boshqa dasturiy vositalarni doimiy ravishda takomillashtirib borish yuzasidan Axborot texnologiyalari boshqarmasi tegishli choralarni ko‘radi. Ichki nazorat xizmati ushbu bo‘linmaga bunday masalalar yuzasidan murojaat qilishi mumkin.

V. MIJOZLARNI RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA QILISH

5.1. Mijozlarni raqamli identifikatsiya qilish bo‘yicha umumiy qoidalar

5.1.1. Mijozlarni raqamli identifikatsiya qilish tizimini yo‘lga qo‘yishdan oldin jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishning ehtimoliy tavakkalchilik darajasini o‘rganish, tahlil qilish, aniqlash, baholash, monitoring qilish, boshqarish, hujjatlashtirish va uni kamaytirish choralari ko‘riladi.

Ichki nazorat xizmati tavakkalchiliklarni tahliliy o‘rganib chiqib, baholaydi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilik darajalarini hamda ularni monitoring qilish va kamaytirish uchun tegishli choralar ko‘rsatilgan yozma xulosasini Bank Boshqaruviga taqdim etadi.

5.1.2. Mijozlarni raqamli identifikatsiya qilishda bankning tegishli bo‘linmalari axborot xavfsizligi bo‘yicha quyidagi choralarni ko‘rishlari lozim:

- mijozning identifikatsiya ma’lumotlarini himoya qilish bo‘yicha zarur bo‘lgan huquqiy, tashkiliy va texnik choralar;
- identifikatsiya ma’lumotlarining ishonchliligi va to‘g‘riligini

- Obtaining information about customers and their beneficial owners registered or residing in countries and offshore zones that do not participate in international cooperation in the field of combating money laundering, terrorist financing, and the financing of the proliferation of weapons of mass destruction, and other related activities.

4.3.9. The Information Technology Department shall take appropriate measures to systematically improve the information technologies used by the Bank, in particular the automated banking system and other software. The Internal Control Service may contact this unit on such issues.

V. DIGITAL CUSTOMER IDENTIFICATION

5.1. General Regulations for Digital Customer Identification

5.1.1. Prior to the implementation of the digital customer identification system, measures will be taken to study, analyze, identify, assess, monitor, manage, document, and mitigate the potential risk of money laundering, terrorist financing, and proliferation of weapons of mass destruction.

The Internal Control Service will analyze and assess the risks and submit a written report to the Bank's Management Board indicating the possible risk levels and appropriate measures for monitoring and mitigating them.

5.1.2. When implementing digital customer identification, the relevant bank departments must take the following information security measures:

- Necessary legal, organizational, and technical measures to protect customer identification data;
- Ensuring the authenticity and accuracy of identification information;

ta’minlash;

- identifikatsiya ma’lumotlarining soxtalashtirilishiga, ruxsatsiz o‘zgartirilishiga va oshkor qilinishiga qarshi choralar ko‘rish;
- identifikatsiya ma’lumotlarini saqlash va ulardan foydalanish ustidan nazoratni ta’minlash;
- to‘lov xizmatlarini ko‘rsatishda axborot xavfsizligi bilan bog‘liq operatsion xatarlarni kamaytirish va ularni nazorat qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish, shu jumladan mijozni raqamli identifikatsiya qilish paytida xavfsizlikni ta’minlash;
- aloqa kanallari bank xizmatlaridan foydalanishda mijoz uchun ko‘p faktorli autentifikatsiya (mobil telefonga bog‘lanish yoki SMS xabar yuborish yoxud elektron pochta, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozning shaxsini qo‘shimcha ravishda tekshirish va tasdiqlash) tartib-qoidalarini qo‘llash;
- sohaga doir boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq zaruriy talablarni qo‘llash.

5.2. Mijozlarni raqamli identifikatsiya qilish

